



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**

**NAMANGAN VILOYATI
XALQ TA'LIMI BOSHQARMASI**

YANGIQO'RG'ON TUMANI

**XTMFM TTTEBGA qarashli 54-umumiy o'rta
ta'lim maktabi IX "A" sinf o'quvchisi **Nurgul****

Mirzamahmudovaning

**“TAQDIRIMSAN, BAXTIMSAN, ERKIN VA
OBOD VATAN!” mavzusidagi**

REFERATI

Mavzu :

**TAQDIRIMSAN,BAXTIMSAN,
ERKIN VA OBOD VATAN!**

Reja :

- 1 . Mustaqillik yo'ldan dadil qadamlar
bilan**
- 2 . Taraqqiyot-farovon hayot asosi**
- 3 . O'zbekistonning kelajagi yoshlar qo'lida**
- 4 . Bugungi kun yoshlarining shiori:**
**”Taqdirimsan,baxtimsan, erkin va obod
vatan!“**

1991-yilning 31 avgust kuni Toshkentda Respublika Oliy Kengashining Navbatdan tashqari VI sessiyasi bo'lib o'tdi. O'zbekistonning davlat mustaqilligi e'lon qilindi. Oliy Kengashning respublika davlat mustaqilligi to'g'risidagi Bayonoti qabul qilindi. Tegishli qarorga muvofiq O'zbekiston SSR O'zbekiston Respublikasi deb qayta nomlandi. 1 sentyabr - Mustaqillik kuni deb e'lon qilindi. O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risidagi Qonun qabul



qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov "O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi e'lon qilinishi munosabati bilan afv etish to'g'risida" Farmon chiqardi. Bu bilan Prezidentimiz insonparvarlik tamoyillariga amal qilish dasturul amal ekanligini isbotladi.

Respublikaning davlat mustaqilligi masalasi bo'yicha Referendum va O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylovlar bo'lib o'tdi. Xalq

bir yo'lni tanladi: O'zbekiston mustaqil bo'ldi. Uning Prezidenti etib Islom Abdug'aniyevich Karimov saylandi

. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "O'zbekiston Respublikasi "Sog'lom avlod uchun" ordenini ta'sis etish to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilindi. Onalik va bolalikni muhofaza qilish, yosh avlod sog'lig'ini mustahkamlash, uni ma'naviy, ahloqiy, jismoniy jihatdan tarbiyalash, unga o'z Vatani - O'zbekistonga bo'lgan mehr-muhabbat va vatanparvarlik tuyg'usini singdirish, shuningdek, bolalar farovonligi yo'lida mehr-muruvvat faoliyatini avj oldirishda faol ishtirok etishdagi alohida xizmatlarni rag'batlantirish maqsadida shu orden ta'sis etildi.



"Imom al-Buxoriy va uning davri" mavzuida Xalqaro ilmiy konferensiya bo'lib o'tdi. Uning ishtirokchilariga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tabrik yo'lladi. Konferensiyada imom al-Buxoriy me'moriy ansamblini qayta qurish bo'yicha eng yaxshi loyiha tanlovining yakunlari chiqarildi. 1993 yil mart oyida Islom tadqiqotlari Oksford markazi tomonidan e'lon qilingan bu tanlovda germaniyalik doktor Bodo Rash va o'zbek me'mori Kamol Shoahmedovning birgalikdagi loyihasi g'olib, deb topildi.

Suveren va mustaqil O'zbekistonni barpo etish, xalqparvar demokratik, huquqiy davlat yaratish, fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta'minlash ishiga qo'shgan ulkan hissasi hamda bu borada matonat va jasorat ko'rsatganligi uchun O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Islom Karimovga "O'zbekiston Qahramoni" unvonini berish to'g'risida Oliy Kengashning Qarori qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov "O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasini muomilaga kiritish to'g'risida" Farmon chiqardi. O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi - so'm respublika hududlarida 1994 yil 1 iyuldan boshlab O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qiymati 1, 3, 5, 10, 25, 50, 100 so'm bo'lgan bank qog'oz pullari (banknotlar) va 1, 3, 5, 10, 20, 50 tiyin bo'lgan metal tangalar holida naqd pul muomilaga chiqariladi. Davlatimiz tenglar ichra yana xam tashqi aloqalarini mustahkamlab bordi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning vakolatlari muddatini 1997 yildan 2000 yilgacha uzaytirish masalasiga bag'ishlangan Umumxalq referendumini bo'lib o'tdi. Xalqimiz bir ovozdan

yakdillik bilan I.Karimovning vakolatlari muddatini uzaytitish uchun ovoz berdi.

"O'zDEUavto" O'zbekiston-Janubiy Koreya qo'shma korxonasida "Neksiya" ,"Damas" va "Tiko" yengil avtomobillari ishlab chiqaradigan liniya ishga tushirildi.Endi O'zbekistonimiz ko'chalarida bir-biridan shinam, chiroyli va tezkor avtomobillarimiz harakatlana boshladi

1997-yilning 3 yanvar kuni O'zbekiston Respublikasining "O'qituvchilar va murabbiylar kunini belgilash to'g'risida"gi Qonun e'lon qilindi. Bu kun Qonun bilan 1 oktyabr deb belgilandi va bayram (dam olish) kuni hisoblanadi. O'qituvchilar va murabbiylarimiz boshqa biror davlatda bo'lmagan imtiyozlar va vakolatlarga ega bo'ldilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" kitobiga bag'ishlangan katta formatdagi rangli albom o'zbek, ingliz va rus tillarida nashr etilganligi to'g'risidagi xabar e'lon qilindi. Mazkur nashr katta hajmdagi axborotni qamrab olgan bo'lib, mustaqil O'zbekiston tashqi siyosatidagi asosiy yo'nalishlar va tamoyillarni ochib beradi.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tomonidan tashkil etilgan harbiy xizmatning zamonaviy shart-sharoiti hamda mamlakatimiz Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining turarjoy ta'minotiga bag'ishlangan ko'rgazma bu borada amalga oshirilayotgan ishlar samaralari haqida keng tasavvur beradi. Ko'rgazma Prezidentimizning 2007 yil 30 noyabrda qabul qilingan Vatan himoyachilari kuni bayramiga

tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risidagi farmoyishi asosida tashkil etildi.

Yurtboshimiz amalga oshirayotgan izchil islohotlar, betimsol bunyodkorlik ishlarimiz asosida, demokratik huquqiy davlat, adolatli fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lida erishayotgan yutuqlarimiz mohiyatida, ongu shuurimizdagi o'zgarishlar, turmushimizdagi farovonlik zahirida Bosh qomusimizning qoida va talablari mujassam ekanini alohida ta'kidladi.

Bolalar sporti sohasidagi aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlar farzandlarimizni sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb qilish imkonini bermoqda. Bu esa jismoniy va ma'naviy jihatdan sog'lom avlodni tarbiyalashga xizmat qilmoqda.



- Sport – sog'lom avlod, sog'lom kelajak deganidir. Binobarin, faqat sog'lom xalq, sog'lom millatgina buyuk ishlarga qodir bo'ladi, – dedi Prezidentimiz Islom Karimov fermerlik harakatining istiqboli haqida so'z

yuritar ekan, fermerlar nainki iqtisodiy, ijtimoiy, balki siyosiy hayotimizning tayanchiga aylanib borayotganini ta’kidladi.

– Fermer faoliyati faqat g’alla yoki paxta yetishtirish bilan cheklanib qolmasligi kerak, – dedi mamlakatimiz rahbari. – Fermer o’zi yetishtirgan mahsulotni o’zi qayta ishlashni yo’lga qo’yishi, shu orqali qishloqqa sanoatni olib kirishi va pirovardida aholi farovonligini oshirishga xizmat qilishi kerak. Jumladan, chorvachilik serdaromad sohalardan biri. Bu sohani rivojlantirish, chorva mahsulotlarini qayta ishlash orqali daromadni bir necha hissa orttirish mumkin. Bu nafaqat ichki bozor talablarini qondirish, balki mamlakatimizning eksport salohiyatini yanada oshirish imkonini ham beradi.

Ulug‘ bayramlarimizni shodiyona bilan nishonlash ezgu udumlarimizdan. An’anaga ko‘ra eng ulug‘, eng aziz bayramlarizarafasida, Prezidentimiz Islom Karimovning farmonlariga muvofiq, mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatini yuksaltirish va islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish, el-yurtimiz ilm-fani, madaniyati va ma’naviyatini yuksaltirish, farovonligi, tinchligi va osoyishtaligini yanada mustahkamlashdagi ulkan xizmatlari uchun bir guruh yurtdoshlarimiz Vatanimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlanib kelinmoqdalar.

Turli xalqaro tashkilotlari haqida gapirganda, ularning shu mintaqada yashayotgan xalqlarning hayoti uchun nechog‘li ahamiyatga ega ekaniga alohida e’tibor qaratmoq lozim, - degan edilar Islom Karimov. - Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlarining iqtisodiy manfaatlari bir-biri bilan

uzviy bog‘liq. Energetika, tabiiy boyliklar yoki transport aloqalarini oling, xullas, barcha sohada manfaatlarimiz tutashib ketgan. Demak, biz oldimizda turgan muammolarni birgalikda, bahamjihat hal etmog‘imiz darkor.

O‘zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi tomonidan 2004 yil avgust oyidan buyon o‘tgan vaqt mobaynida mamlakatimizda, ayniqsa, qishloq joylarda sport infratuzilmasini barpo etish hamda bolalarni sportga ommaviy jalb qilish borasida amalga oshirilgan ishlar sarhisobi, shuningdek, Jamg‘armaning byudjeti bajarilishi , bolalar sporti inshootlarini zarur jihoz va anjomlar bilan ta‘minlash, ularni respublikamizda ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish hamda qishloq joylarda bolalar sportini rivojlantirishda mahalliy hokimlik organlarining roli va mas‘uliyatini oshirishga doir masalalarni atroflicha tahlil etishdan iborat ekanini ta’kidladi.

Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan Xotira va qadrlash kuni deb e‘lon qilingan ushbu umumxalq bayrami mamlakatimizda keng nishonlandi. Ushbu bayram bu gal alohida nishonlanayotgani uning ahamiyatini yanada oshiradi. Xotira va qadrlash – inson aql-zakovatining betakror ma‘naviy ne‘matlari, tiriklikning azaliy mezonlaridir. Homiylik, saxovat va himmat, mehr va muruvvat fazilatlari xotira va qadr tushunchalari bilan o‘zaro uyg‘unlik kasb etadi. Zero, qalbi saxovatga, mehr-muhabbatga, shafqat-shafoatga to‘la insonlargina o‘z tarixini, ajdodlarini doimo xotirlaydi va fidoyi yurtdoshlari, yorug‘ kelajak yo‘lida mehnat qilayotgan kishilarning qadriga yetadi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda barcha sohalar qatori ma'naviyat va ma'rifat, ta'lim va tarbiya jabhalarida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Buyuk ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish, ma'naviy merosini asrab-avaylash va keng targ'ib etishga jiddiy e'tibor qartilmoqda. Ulug' mutafakkir, tasavvuf oqimining yetuk namoyandasi Xoja Bahouddin Naqshband hazratlari tomonidan jahon tafakkur xazinasiga qo'shilgan ulkan ma'naviy merosni atroflicha o'rganish, bu betakror boylikdan yosh avlodlarni voyaga yetkazishda samarali foydalanish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.



Bu muqaddas maydon, nainki Xotira va qadrlash kuni, balki yil bo'yi ziyoratchilar bilan gavjum bo'ladigan maskanga aylangan. Kishilar bu yerga shunchaki tomosha yoxud sayr uchun kelmaydilar, o'tganlarni yod etadilar. Bu tuyg'u bugungi tinch va osoyishta hayotimizni, tiriklarni qadrlashga da'vat etadi. Ushbu maydonga kelgan har bir inson qalbida

shu tabarruk yurt barchamizniki, uni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash muqaddas burchimizdir, degan ezgu tuyg‘u jo‘sh uradi.

Eng ulug‘ va eng aziz bayramlarimiz arafasida, Prezidentimiz Islom Karimovning farmonlariga muvofiq, o‘zining fidokorona mehnati bilan Vatanimiz taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan, hayotimizning barcha sohalarini rivojlantirish, yurtimizda tinchlik va osoyishtalikni saqlash, chegaralarimiz daxlsizligini ta‘minlashda o‘rnak va namuna ko‘rsatgan xalqimizning munosib vakillari yuksak davlat mukofotlari – faxriy unvon, orden va medallar bilan taqdirlangan edi.

Davlatimiz rahbarining ma‘ruzasida islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish chora-tadbirlarini izchil amalga oshirish natijasida iqtisodiy o‘shishning barqaror yuqori sur‘atlari, inflatsiya darajasining pasayishi va xalq farovonligining oshishi tendensiyalari mustahkamlanganligi qayd etildi.

Eng avvalo, iqtisodiyotning barqaror va muvozanatlashtirilgan o‘shishini ta‘minlash, eng muhim tarmoqlarni yanada tarkibiy jihatdan o‘zgartirish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, shu jumladan, buni to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish hisobiga amalga oshirish, ish haqlari va aholi turmushi sifatini muttasil oshirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun qulay ish muhitini yaratish, xususiy mulkchilikni mustahkamlash, bank-moliya tizimida va kommunal xo‘jalikda islohotlarni chuqurlashtirish ana shular jumlasidandir.

Respublikada oliy ma‘lumotli yuqori malakali kadrlarni jahon ta‘lim mezonlari talablariga muvofiq ravishda tayyorlash, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida iste‘dodli yoshlarning imkoniyatlarini

yuzaga chiqarish va ulardan samarali foydalanish, rivojlangan mamlakatlar yetakchi oliy ta'lim dargohlari bilan hamkorlikni yanada kengaytirish maqsadlarida Vazirlar Mahkamasi "Toshkent shahrida Xalqaro Vestminster universitetini tashkil etish to'g'risida" Qaror qabul qildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Zulfiya nomidagi davlat mukofoti bilan taqdirlash to'risida"gi qarori qabul qilindi. Bu mukofot adabiyot, san'at va boshqa yo'nalishlarda alohida o'rnak bo'lgan qizlarimizga topshiriladigan bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidentining iqtidorli yoshlarni chet elda o'qitishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha "Umid" jamg'armasi, Tashqi ishlar, Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirliklari, Britaniya Kengashi va Vestminster universiteti Buyuk Britaniya hamkorligida Toshkentda Vestminster universiteti ochilgan edi. Bu maskanda iqtidorli yoshlarimiz jahonning yuksak taraqqiy etgan davlatlari vakillari bilan teng huquqli ta'lim olish imkoniga ega bo'ldilar. Davlat rahbari Islom Karimov mazkur universitetga tashrif buyurdi va bu OO'Yuni tantanali ochilishida ishtirok etdi.

2007-yil 1 avgustda "O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasining mintaqaviy filiallari tuzilmasini takomillashtirish to'g'risida" Vazirlar Maxkamasining qarori chiqdi. Bu qaror eng chekka hududlarimizda xam sportni jadal rivojlantirishga turtki bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mustamlakachilik davrida milliy mustaqillik va taraqqiyotga intilgani

uchun nohaq hukm qilingan, ta'qib etilgan va jabrlangan vatandoshlar nomini aniqlash, ularning tarjimai holi va faoliyatini o'rganish, xotirasini abadiylashtirish haqidagi takliflar va tavsiyalarni ishlab chiqish uchun jamoatchilik komissiyasini tashkil etish hamda tasdiqlash to'g'risidagi Farmoyishi e'lon qilindi. Nohaq ta'qibga uchrab, turli joylarda sarson-sargardon bo'lgan va shu yurt mustaqilligi uchun jonini fido qilgan yurtdoshlarimiz xotirtalari tiklana boshladi.



"Sharq" nashriyot-matbaa konsernida Islom Karimovning "Barkamol avlod orzusi" kitobi bosilib chiqqanligi e'lon qilindi. Prezident Islom

Karimovning ta'lim tizimini tubdan isloh qilish Milliy modeli hamda Yurtboshimizning Oliy Majlis IX sessiyasida so'zlagan "Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining asosi" nomli nutqi, shuningdek, uning "Tafakkur" jurnali bosh muharriri savollariga bergan javoblari kitobdan joy olgan. Kitobning to'rtta bobida ta'lim va yoshlar tarbiyasi, ta'lim tizimini isloh qilishning maqsad va vazifalari, bosqichlari to'g'risidagi publitsistik mulohazalar bayon etilgan.



Ayollar yili munosabati bilan "O'zbekiston" nashriyoti "Ayolga ehtirom" to'plamini nashr etganligi haqidagi xabar e'lon qilindi. To'plamda ijtimoiy hayotda ayol rolini oshirish haqida Prezident I.Karimovning fikr-mulohazalari, rasmiy hujjatlar bilan bir qatorda

publitsistik maqolalar, tarixda o'chmas iz qoldirgan Sharqning To'maris, Bibixonim, Gulbadanbegim, Zebunniso, Nodira, Uveysiy singari buyuk ayollari haqida hikoya qiluvchi tasviriylar san'at asarlaridan namunalar ham o'rin olgan. Kitobda yana ularning hozirgi izdoshlariga bag'ishlangan maqolalar, o'zbek mumtoz adabiyoti vakillarining she'r va ocherklari, zamonaviy shoirlar va yozuvchilarning onalarimiz, rafiqalarimiz va opa-singillarimizni tarannum etuvchi asarlari berilgan.

Poytaxtimiz Toshkentda kurash bo'yicha birinchi Jahon chempionati esdalik kubogini - sportchilardan O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovga in'om qilingan sovg'ani Olimpiya shon-shuxrati muzeyiga hadya sifatida topshirish marosimi bo'lib o'tdi. Kurash bo'yicha birinchi Jahon chempionatining esdalik kubogi bundan buyon O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov jahon sportini rivojlantirishga qo'shgan ulkan hissasi uchun taqdirlangan ikkita mukofot - Xalqaro Olimpiya qo'mitasining "Oltin ordeni" va Osiyo Olimpiya Kengashining "Oltin ordeni" o'rtasida saqlanadi.

Madaniy merosimizni qayta tiklash borasida Marg'ilonda buyuk mutafakkir, Islom fikhining asoschilaridan biri, shayxulislom Burhoniddin al-Marg'inoniy tavalludining 910 yilligiga bag'ishlangan tantanalar bo'lib o'tdi. Tantanalarda dunyoning 30 dan ziyod mamlakatidan kelgan ulamolar, olimlar, ko'pgina davlatlarning mamlakatimizdagi elchilari, xalqaro tashkilotlarning vakillari, davlat arboblari ishtirok etdilar. Mehmonlar Rishton shahriga bordilar. Islom dunyosi qonunlarining eng mukammal to'plami bo'lgan "Hidoya" asari muallifining ramziy hoki shu yerga dafn etilgan. Qadimiy Marg'ilonda

"Burhoniddin al-Margʻinoniyning jahon fani va madaniyati rivojida roli" mavzuida Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya oʻtkazildi. Shahar markazida buyuk hazrat xotirasiga oʻrnatilgan yodgorlik majmuasi tantanali ravishda ochildi.

Toshkentdagi "Jar" sport majmuasida "Yoshlar terrorizmga qarshi" shiori ostida birinchi harbiy sanʼat festivali boʻlib oʻtdi. Sportchilar kikboksing, kurash, karate, taekvando, luay-tay, tayboksing hamda harbiy sanʼatning boshqa turlari boʻyicha oʻz mahoratlarini namoyish etdilar. Bunday tadbirlar albatta, oʻz ijobiy natijalarini bera boshladi.

Oʻzbekiston hukumati BMTning taraqqiyot Dasturi bilan hamkorlikda birinchi hukumatlararo global tarmoq loyihasini rasman tuzib chiqa boshladi. U axborotlar almashinuvi jarayonini yengillashtirish va jahon "Internet" tarmogʻining ulkan axborot zaxiralaridan foydalanish imkoni tugʻdiradi. Shu munosabat bilan boʻlib oʻtgan marosimda mazkur strategik jihatdan muhim sohada xalqaro hamkorlik shart-sharoitlarini belgilab beruvchi hujjat loyihasi imzolandi.

Biz yoshlar bunday imkoniyatlardan unumli va omilkorona foydalanishimiz, hukumatimiz yaratib berayotgan qulayliklardan jamiyatimiz va davlatimiz rivoji uchun sarf etishni oʻz oldimizga maqsad qilib qoʻyishimiz zarur.

Jamiyatimiz rivojlanishi uchun zarur boʻlgan bilim va koʻnikmalarni puxta egallab, jahondagi tengdoshlarimiz qatoridan munosib oʻrin egallashimiz, kerak boʻlsa, ularga saboq bera olishimiz lozim. Bugungi kun yoshlarining shiori: "Taqdirimsan, baxtimsan, erkin va obod vatan!"

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1 . “Taqdirimsan,baxtimsan, erkin va obod vatan” kitobi.I.Karimov,2011-yil.

2 . “O’zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” I.Karimov,2011-yil.

3 . “Bizdan ozod va obod vatan qolsin.” I.Karimov,2004-yil.

4 .“Bunyodkorlik yo’lidan” I.Karimov,1996-yil.

5 .”Biz tanlagan yo’l-demokratik taraqqiyot va ma’rifiy dunyo bilan xamkorlik yo’li” I.Karimov,2003-yil.

6 . “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” I.Karimov,2008-yil